MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINI TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Qodirqulova Marjona Qo’chqorboy qizi
Guliston Davlat Pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi Email:*qodirqulovamarjona36@gmail.com*
Ilmiy rahbar: Hakimov Ravshan

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini tayyorlash jarayonida xorijiy mamlakatlarning ilg‘or pedagogik tajribalarini o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda AQSH, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi yetakchi davlatlarning tarbiyachilarni tayyorlash modullari, malaka oshirish tizimlari va zamonaviy metodikalariga urg‘u berib o‘tilgan. Maqolada xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyachi tayyorlash, xorijiy tajriba, pedagogik innovatsiya, malaka oshirish, qiyosiy tahlil, zamonaviy metodikalar.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы изучения передового педагогического опыта зарубежных стран в процессе подготовки воспитателей дошкольных образовательных организаций и его адаптации к условиям Узбекистана. В исследовании акцентируется внимание на модулях подготовки воспитателей, системах повышения квалификации и современных методиках таких ведущих стран, как США, Финляндия, Сингапур и Япония. В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты интеграции зарубежного опыта в национальную систему образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, подготовка воспитателей, зарубежный опыт, педагогическая инновация, повышение квалификации, сравнительный анализ, современные методики.

Abstract: This article analyzes the issues of studying the advanced pedagogical experiences of foreign countries in the process of training educators for preschool educational organizations and their adaptation to the conditions of Uzbekistan. The study emphasizes the training modules for educators, professional development systems, and modern methodologies of leading countries such as the USA, Finland, Singapore, and Japan. The article examines the theoretical and practical aspects of integrating foreign experiences into the national education system.

Keywords: preschool education, educator training, foreign experience, pedagogical innovation, professional development, comparative analysis, modern methodologies.

Bugungi kunda zamonaviy dunyoda maktabgacha ta’lim sifatini oshirish har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachining professionalligi esa bu sifatning asosiy kafolati hisoblanadi. Ta’lim tizimida, jumladan maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yuz berayotgan o‘zgarishlar muhim ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida butun maktabgacha ta’lim tizimida ijobiy natijalarni beribgina qolmay, uni yana bir yuqori bosqichga olib chiqdi deyish mumkin. Buni amaliy isboti sifatida maktabgacha ta’limning ajralmas qismi bo‘lgan uning bir bo‘lagi sifatida qaralayotgan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining o‘sib borayotgan malakasi va ularning yutuqlarini aytib o’tish lozim. Yurtboshimiz tomonidan berilayotgan keng imkoniyatlar natijasida maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog xodimlarining oliy ma’lumot darajasi sezilarli ravishda oshgani va ularning asosiy qismi oliy ma’lumotli kadrlar bilan ta’minlanganligini aytish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “yoshlarni erta yoshdan rivojlantirish va ularga ta’lim sharoitlarini yaratish, kelajakda ularning to‘laqonli o‘zini namoyon qilishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi”. Shuning uchun, O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy

tajribalardan foydalangan holda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va yuqori malakali pedagoglar yordamida bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatilishi lozim.[1] Shuningdek, ta’lim jarayonida individual yondashuv, bolalar ehtiyojlarini inobatga olish, rivojlanish darajasiga moslashtirilgan metodikalar va dasturlarni joriy etish, maktabgacha ta’limda xorijiy tajribani samarali transformatsiya qilishni ta’minlaydi. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki yoshlar orasida deviant xulq-atvorni kamaytirishga ham yordam beradi. Maktabgacha ta’lim bolalarning intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Fillandiya tajribasi:Ota-onalar xohishiga ko‘ra bolalar 3 yoshgacha oila davrasida qolishi mumkin, ammo aksariyat hollarda ota-onalar mehnat faoliyati bilan band bo‘lganligi sababli erta yoshdan MTTlarga farzandlarini berishadi. Finlyandiyada bolalar uchun uzluksiz ta’lim sayohati Finlyandiya maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshlanadi. Uy vazifasi yoki majburiy standartlashtirilgan testlarsiz ular vaqtlarini o‘ynash, kashf qilish va o‘rganishni o‘rganishga sarflashadi. Natijada Finlyandiya 100% savodxonlik darajasiga ega, Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA)da eng yaxshi natijalarga erishgan va maktabga borishni yaxshi ko‘radigan bolalarga ega davlat hisoblanadi.[2]

Shvetsiya tajribasi: Maktabgacha ta'lim tizimi – bu zamonaviy jamiyatning o‘ziga xosligi va uning rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir. Aynan shu sababli rivojlangan mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor beradilar, zero bu aholining ishchi kuchiga barqaror jalb etilishiga, shuningdek bolalarning tegishlicha jismoniy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shvetsiyadagi bolalar bog‘chalari 1 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan tarbiyalanuvchilarni qabul qiladi va 6:00 dan 19:00 gacha xizmat ko‘rsatadi. Shvetsiya maktabgacha muassasasida ta'lim bolalarda bilimlar va qadriyatlar hamda butun umrlari davomida o‘qishga istak shakllanishiga qaratilgan. Asosiy e'tibor birgalikdagi o‘yinlar, bag‘ri kenglik va boshqalarga e'tiborlilik kabi qadriyatlarga qaratiladi. Gender pedagogika tobora kuchli

dolzarblik kasb etmoqda – bolalarda, jinsiga qaramay, barobar imkoniyatlar bo‘lishi uchun, o‘quv jarayonida gender stereotiplariga qarshi ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, Shvetsiyada bolalar bog‘chalari tarbiyachilarining taxminan 5 foizini erkaklar tashkil qiladi.[3] Bu kam bo‘lsa-da, harqalay, boshqa mamlakatlardagiga qaraganda ancha yuqori ko‘rsatkich. MTTda pedagog bo‘lish uchun oliy ma'lumot va Ta'lim vazirligidan litsenziya bo‘lishi kerak. Bolalar parvarishi bo‘yicha xodimlar o‘rta-maxsus ma'lumotga ega bo‘ladilar va kundalik taomillar uchun javobgarlikni zimmalariga oladilar.

Xitoy tajribasi: dunyoda eng katta aholi soniga ega bo‘lgan davlat bo‘lganligi sababli ham hukumat qashshoqlikni kamaytirish maqsadida ta‘lim tizimini rivojlantirish dasturini ishlab chiqqan. Olib borilgan islohotlar natijasida keyingi 10 yilliklarda Xitoy ta’lim tizimi katta yutuqlarga erishdi. XX asrning o‘rtalariga qadar Xitoy iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan bo‘lib, qo‘l mehnatiga tayangan dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Aholining katta qismi qishloqlarda istiqomat qilgan va ta‘limda ko‘proq gumanitar fanlar falsafa, tarix va ijtimoiy sohalarga ustuvorlik berilgan. Xitoy ta‟lim tizimi asosan maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim va oliy ta‘limdan iborat. Xitoy Xalq Respublikasining “Majburiy ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi barcha uchun majburiy o‘rta ta‘lim tizimini shakllantirdi. Yangi qonunga ko‘ra 9 yillik ta‘lim majburiy va bepul qilib belgilandi. Xitoyda pedagogik ta‟lim hozirda xalqaro darajaga etib bormoqda. Rossiya, Yaponiya va AQSh tajribasidan kelib chiqib, milliy an’analarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z tizimi yaratilmoqda.[4]

Maktabgacha ta’lim tizimi har bir davlatda o‘zining milliy va madaniy xususiyatlariga ko‘ra shakllangan bo‘lib, maktabga tayyorlov jarayonlari ham turlicha tashkil etiladi. B.E.Parmonov o‘z tadqiqotlarida xorijiy tajribalarni o‘rganib, rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta’limning erta yoshdan boshlanishinibolalarning intellectual va psixologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir

ko‘rsatishini ta’kidlagan.[5] Xususan, Italiyada bolalar 3 yoshdan 6 yoshgacha davlat va xususiy (katolik) bog‘chalarda maktabga tayyorlanadi, bu esa ularning umumiy ta’lim tizimiga uzluksiz o‘tishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, jahonning ilg‘or mamlakatlari tajribasini o‘rganish maktabgacha ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Xorijiy tajribadan foydalanishning asosiy maqsadi — tarbiyachini shunchaki nazariyotchi emas, balki innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo‘llay oladigan, bolalar bilan ishlashda psixologik va ijodiy yondashadigan professional mutaxassis sifatida shakllantirishdir. Bu esa mamlakatimizning uchinchi renessans poydevorini qurish yo‘lidagi strategik maqsadlariga to‘la mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g„risida”gi PQ-4623-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning // Barcha dunyo bolalar ta’limi va tarbiyasi bo‘yicha YUNESKO konferensiyasi. – Toshkent, 2022.
5. Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil qilishda xorij tajribasining nazariy asoslari. Qurbonov.I.G- Toshkent, 2021